

Ilmiy kotib lavozim vazifalari:

- O'zbekiston Respublikasining yuqori turuvchi davlat organlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan institut faoliyatini tashkil etish, strukturasi va ish tartibiga oid chiqarilgan buyruq hamda me'yoriy hujjatlarni to'plash, saqlash va bajarilishini ta'minlaydi.
- Institut barcha bo'linmalari faoliyatini amalga oshirishga yordam beradi.
- Institut rektorining buyruq va farmoyishlari bajarilishi bo'yicha monitoring olib boradi.
- Institut ilmiy kengashining bayonnomasi va barcha hujjatlarini yuritish, kengash a'zolariga xabar berish va kengash qarorlarining ijrosini ta'minlanishini nazorat qiladi.
- Ilmiy unvon olishga oid hujjatlarni tayyorlaydi.
- Ilmiy tadqiqot ishlarining bajarilishini chorak va yillik hisobotlarni tayyorlash va uzluksiz nazorat qiladi.

Bilishi kerak:

- OTMsida ilmiy ishlarini olib borish bo'yicha normativ hujjatlar, vazirlik buyruqlari bilan belgilangan lavozim vazifalarini, oliy ta'limga oid qonunligini, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruq va yo'riq xatlarini bilishi, professor-o'qituvchilar tarkibining tanlov orqali lavozimlarini egallash tartibini bilishi, ilmiy daraja va ilmiy unvonlar berish tartibini bilishi.

Malaka talablari:

- Oliy ta'limga oid qarorlarini, oliy o'quv yurtlari to'g'risidagi Nizomni, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruq va yo'riq xatlarini bilishi;
- OTMsiga, ilmiy kengashga, ilmiy unvon berishga taalluqli ko'rsatmalarini hamda me'yoriy hujjatlarini bilishi;
- Oliy ma'lumotga ega bo'lishi;
- Professor-o'qituvchilar tarkibining tanlov orqali lavozimlarini egallash tartibini bilishi zarur.

Laborant lavozim vazifalari:

- Laboratoriyaning ish rejasiga, kafedra mudiri, laboratoriya mudirining ko'rsatmalariga muvofiq ta'lim jarayonini ta'minlash bilan bog'liq hamma ishlarni bajarish;
- Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda qatnashish, mashg'ulotda o'qituvchining barcha talablarini ado etish, laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish chog'ida xavfsizlik texnikasi, yong'inga qarshi xavfsizlik qoidalarini o'rganish va bilish hamda yong'inni o'chirish vositalaridan foydalana olish, ishda ularga rioya etish va talabalardan ularga rioya etishni talab qilish;
- O'ziga topshirilgan uskunalar, asboblarni va boshqa texnik vositalarni bilish, ulardan o'quv va ilmiy maqsadlarda foydalana olish;
- O'quv ko'rgazmali qurollarni tayyorlash va hal etishda, laboratoriya uskunalarini yig'ish, montaj qilish, profilaktika va ta'mirlashda qatnashish, ma'ruza va laboratoriya amaliy mashg'ulotlarni hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish uchun zarur materiallarni tayyorlash;
- Uskunalar va asboblarning butunligini, laboratoriyada va ish joylarida ozodalik hamda tartib saqlashni kuzatib borish;
- Asbob-uskunalar, stendlar, maketlar va shu kabilarning holati to'g'risida kabinet mudiri (katta laborant)ga o'z vaqtida ma'lum qilib turish, o'z bilimlarini, malakasini oshirish ustida ishlash, kafedra majlislarida va kafedraning barcha materiallarini hamda o'quv, uslubiy, ilmiy xizmatga oid hujjatlarni kompyuterda chop etish.

Bilishi kerak:

- O'z faoliyatiga taalluqli Nizom, yo'riqnomalar va me'yoriy hujjatlarni, OTMsi ichki tartib-qoidalari, me'yoriy hujjatlarni bilishi.

Malaka talablari:

- Namunaviy shaxsiy fazilatlarga-intellekt, madaniyatli, ijodiy qobiliyatlar, xushmuomalalik va tashabbuskorlik qobiliyatlariga ega bo'lish, mas'uliyat hissi, mustaqil qaror qabul qilish va ish tutish, qat'iy harakat qilish xususiyatlariga ega bo'lishi;
- Oliy ma'lumotga ega bo'lishi;
- O'z sohasiga tegishli masalalar bo'yicha axborot va ma'lumotlardan xabardor bo'lishi zarur.